

“ ASARI – O’ZBEKONA RUH TIMSOLI

Usarova Layo Ibgragemovna.

O’zbekiston – Finlandiya pedogika instituti.

O’zbek tili va adabiyoti kafedra dotsenti

Eshtemirova Farangiz Odil qizi.

O’zbekiston – Finlandiya pedogika instituti.

O’zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o’zbek adabiyotida milliy ruhni yoritib bergen yozuvchi Tog’ay Murod ijodi „, Yulduzlar mangu yonadi” asari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar. Tog’ay Murod, milliy ruh, kurash, polvonlar, urf-odat, qadriyat, yulduz, mag’lubiyat , g’alaba.

O’zbek xalqining azaliy qadriyatlari, boy urf-odatlarini va yillar davomida to’plangan dardlarini ta’sirli misralarda jonlantirgan yozuvchilardan biri Tog’ay Murod hisoblanadi.Uning asarlarini o’qib chuqur ma’no yashiringanligini anglay olamiz, ammo u o’z shaxsiyatini sirliligicha saqlashni hohlardi. Shuning uchun Tog’ay Murod bilan yaqindan munosabat qilmaganlar uchun sirliligicha qoldi.

Dastlabki yirik asari „, Yulduzlar mangu yonadi” qissasi orqali yozuvchilik salohiyatini ko’rsatib berdi. Va jamiyat unga boshqacha ko’z bilan qaray boshladi. Undan so’ng „, Ot kishnagan oqshom “ , „Otamdan qolgan dalalar “ , „ Bu dunyoda o’lib bo’lmaydi “, "Oydinda yurgan odamlar “ kabi asarlar bilan mashxurlik zinapoyalarini hatlab o’tdi. Tog’ay Murod asarlarini birlashtirib turadigan jihatni bu barchasida , avvalo, milliy ruh ufurib turishidir. Uning asarlarida xalq shevalari, maqol va iboralaridan keng foydalanganligi ularning o’qishliligini ta’minlab beradi. Asarlari yoshlar uchun ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lib, o’quvchida do’stga sodiqliq , mardlik, xaqiqatgo’ylik , bir so’zlilik ,

urf-odat va qadriyatlarini ardoqlash tuyg'ularining paydo bulishiga zamin yaratadi .

Sevimli adiblarimizdan O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad „ Tog'ay Murod qissalarini o'qir ekanman har gal yangi bir yozuvchi ko'rgandek bo'laman. U kechagi hammani qoyil qoldirgan „ Yulduzlar mangu yonadi” yoki „ Ot kishnagan oqshom” asarlarini yozgan Tog'ayga o'xshamaydi , „ Oydinda yurgan odamlar”ni boshqa Tog'ay yozgan , deb o'ylaysiz . Ha , uning asarlari sira bir-birini takrorlamaydi.” [2] deb yozgan edi ...

„Yulduzlar mangu yonadi “ asarida o'zbek xalqining toptalgan ornomusini qayta jlonlantiradi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Asar go'yoki, sherdai o'qiladi, bu esa yozuvchining poetik qobiliyatini namoyon qilib beradi . bu asar kichik hikoyalardan tashkil topgan bo'lib, bir necha asrlardan buyon o'zbek xalqi qon-qoniga singib ketgan va elda ardoqlanib keliniyotgan qadriyatlardan birkurash, polvonlar , ularning o'rtasidagi munosabatalar va ziddiyatga boy bulgan hayotiy manzaralar aks etgan. Haqiqat qiyoslarda yuzaga chiqadi . Asar bosh qahramoni Bo'ri polvon timsolida komil insonning ko'rinishini ko'rishimiz mumkin. U mardlik, bir so'zlilik, jasorat , pok muhabbat , haqiqiy er yigit qanday bo'lishini ko'rsatib beroladigan shaxs edi. Uning bolalikdagi yaqin do'sti Nasim polvon obrazi esa sotqinlik , do'stga hiyonat , nomordlik, yolg'onchilik sifatlari orqali asarning bosh qahramonini o'zaro ziddiyatga chorlaydi . Bu esa asarda o'zgacha ta'sir kuchi yaratadi. Yozovchi asar yetakchi qahramonlarining ijobiy sifatlari bilan birgalikda salbiy taraflarini ham olib kiradi. Bosh qahramon Bo'ri polvon obrazini , masalan ,Sariosiyoda bo'lgan kurashda Bo'ri polvon davrani aylanar ekan unga davogar polvon chiqmaydi. Shunda yosh va gavdasi bilan kirib kelayotgan Ismoil polvonga bepisantlik, kibr ko'zi bilan qaraydi va „ Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning buti yirtilgan ekan “ degan xayolga keladi. Negaki , hali kuragi yerga tegmagan , dong'i ketgan polvonga uzini teng ko'riyaptimi diya g'azablanadi. Asar kulminatsiyalaridan biri o'sha kurashda Ismoil polvon Bo'ri polvonni yiqitadi. Va xalq orasida Bo'ri polvon tizzasiga boshini qo'yib yum-yum yig'laydi, bu nafaqat kurashchi polvonlar, balki, har bir yigit uchun achinarli holat edi. Shu tariqa uning ojiz taraflarini ham yoritib

beradi . Asar bosh qahramoni Bo'ri polvon kurash sirlari nozikliklarini ziyraklik bilan anglab olardi. Bir kurashda bir biriga tirmashib davra aylanayotgan ikki polvon ko'rib bir- biringni yiqitmay, zotni bo'lib olish uchun chiqqan bo'lsanglar undan ko'ra kuchada turva ko'tarib tilamchilik qilsalaring yaxshi deb biladi. Unga asarda yigitlik g'ururini saqlab qolgan obraz deya ta'rif berolamiz. Shu bilan birga yozuvchi samimiyl muhabbatni asar davomida yoritib beradi. Uni asar yetakchi obrazlaridan biri Momoqiz , misolida ko'rishimiz mumkin. Bo'ri polvon Nasim polvon bilan onalari to'n yopishib do'st bo'lishgandi, ammo u ham xiyonat qilib ketadi. Shu tariqa Bo'ri polvonni yozuvchi juda kop qiyinchiliklarga duchor qiladi, bu esa Bo'ri polvonni yetuk shaxs qilib tarbiyalaydi. U haqiatdan qurqmaydi, aksincha rohatlanadi .

„Yulduzlar mangu yonadi” asarida kurashda yiqilgan odam yulduz sanaydi , ammo usha mag'lubiyat odamni yuksaltirish xusuiyatiga ega. Bo'ri polvon halolik, Nasim polvon g'irromlik ramzi bo'lsa , g'irromlik ko'proq g'alaba qozonadi, lekin oxir oqibat haqiat yuzaga chiqadi . Asar davomida shuni anglaymizki , Bo'ri polvonni hayot qanchalik qiynamasin, uning vijdoni rohatda edi. Nasim polvonning asar oxirida ko'zlari ko'r bo'lib qolishi orqali hayotda hamma qilmishlarimizga javob berishimizni ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda , o'zbek xalqining sovet davrida toptalgan ornomusi, ichida qolib ketgan dardlarini milliy ruh orqali yoritib berilgan . Asar bosh qahramoni Bo'ri polvon o'zbekona iftihorni aks ettiradi . Bo'ri polvon shunday niyat qiladi .

Nevaralarim davralarda

-Yo , bobomning piri! -deya ayqirib-ayqirib olishberadi!

Yulduzim mangu yonadi! [1;59]

Bu asarda yorqin yulduz Bo'ri polvonning yulduzi, bu yulduzning tiniq yoritishiga o'zining umri misolida kuchi yetguncha harakat qiladi. Kelajakda ham yorqin porlab turishi uning avlodlariga bog'liq.

Qadriyatlarni ulug'lagan yurtning yulduzi mangu yonadi!

ISSN:3060-4567 Modern education and development
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.,,Yulduzlar mangu yonadi”, „ Sharq” nashriyoti, Toshkent.1994
2. Kh-davron.uz Xurshi Davron kutubxonasi
- 3.Ziyouz.com.